

**CHE TILINI YOXUD INGLIZ TILINI MUSTAQIL O'RGANISH***Yoqubova Dinora Qaxramon qizi**Samarqand davlat chet tillari instituti**email: [yakdina0507@gmail.com](mailto:yakdina0507@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA:** Turli soha va mutaxassisliklarda maqsadli va mustaqil til o'rganish uchun zamonaviy, sodda va samarali til metodikalari tahlili bugungi globallashgan dunyoda juda muhimdir. Ushbu tadqiqot barcha mustaqil ravishda o'rganishni xohlovchi turli soha vakillarining aniq til ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan qulay, oson yondashuv va texnikalarini o'rganishga qaratilgan. Bu metodikani tahlil qilish orqali tadqiqot til o'rganish samaradorligini va natijadorligini oshirishga, mustaqil o'rganuvchilarga mos keladigan uslublarni taqdim etishga qaratilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** mustaqil til o'rganish, aktiv va passiv so'z yod olish ta'siri, til òrganish samaradorligi, maqsadli strategiya, texnikaviy yondashuv, foydasiz texnikalar.

**KIRISH QISM:** Bugungi kunda xorijiy tillarni òrganish zamon talabi bòlib bormoqda. Istalgan sohani olib qaramaylik, òsha sohadagi yangiliklarning kòp foizi eng kòp sòzlashuvchilarga ega bòlib ulgurgan ingliz tilida berilgan. Masalan, zamonaviy texnologiyalar bilan ishslash uchun ingliz tilini yokida rus tilini yetarli darajada yaxshi bilish talab etiladi yoki boshqa sohaga e'tibor qaratadigan bolsak, meditsina sohasini olaylik undagi eng muhim va so'nggi yangilanishlar yoxud meditsinasi rivojlangan davlatlarda amaliyot òtash (Hindiston, Germaniya kabi davlatlar) ham chet tilini bilishimizni talab etadi. Fan sohasidan uzoqlashgan holatda, ta'lif tarbiyaga e'tibor qaratadigan bolsak, xususan, bola tarbiyasi ya'ni chaqaloqligidan qanday tarbiya qilish kerak? Aqliy salohiyatini qanday oshirish kerak? Yiğlaganda yoxud bezovta bòlganda qanday yòl tutish kerak? Miya faoliyatining yaxshi rivojlanishi va jismoniy yuksalishi uchun qaysi öyinlardan foydalanish kerak? yokida oddiygian uy jihozlarini qanday ishlatish bòyicha, yuz parvarishi, ruhiy salomatlik, onalarning tuğruqdan keyingi tiklanishi uchun nimalar qilinishi kerakligi tògrisidagi savollarga rus tilida, eng kòp ingliz tilida ma'lumot topa olish mumkin.

Yuqori daromadli ish o'rniga ega bòlish, xalqaro maydonda òz òrnini egallashi va òz brendiga asos solishi ham o'z òrnida ingliz tilini yoxud chet tilini bilishni talab etishi turgan gap. Shunday ekan, hozirgi paytga kelib O'zbekistonda chet tilini o'rganuvchilar soni, ayniqsa, ingliz zabon lar soni sezilarli darajada oshganiga guvoh bòlishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, chet tilini o'rganish istagida bo'lganlarning barchasida ham til kurslariga borib, til òrganishga yoki vaqtি yoki sharoiti tògri

kelmaydi. Bu holda ular mustaqil ravishda òrganishlari ham mumkin. Faqatgina internetga yaxshi ulangan texnologiyalar, ishtiyoy va til o'rganish uslubi, texnikalarini bilsa yetarli. Buyerda tilni òrganish yuzasidan bir qancha tavsiyalar jamlangan:

Qiziqarli yòlni tanlash; albatta biron narsani òrganish uning qanchalik qiziqarli ekanligiga bog'liq. Til òrganishda ham aynan nimadan ko'proq zavq olishini aniqlab olish kerak. Masalan, kimdirlar uchun kitob o'qish juda zerikarli jarayon, kimdir uchun ro'yxatdagi bir qator sözlarni yodlash. Shunday holatda o'rganuvchiga kitob o'qish yoqmayapti, demak tinglab o'rganish kerak (multfilm, motivatsiyon hikoyalar, qo'shiqlar eshitib), bittalab söz yod olish qiyinlik qilsa, tinglagan hikoyalaridagi butun gapni yoki so'z birikmasini yod olishi kerak.

Fikrini bayon qilish; òrganayotgan tilida har kuni kamida 10 minut davomida òziga o'zi fikrlarini, anglashlarini aytishi, hattoki gramatik qoidalarga bòysunmasdan gapirsa ham, muhimi gapishtish anchagina samara beradi. Bu esa o'z navbatida òrganuvchiga ishonch, motivatsiya beradi.

Suhbat qurish: eng samarali yo'l budir. O'rganayotgan tilda ko'pdan kòp o'sha tilda gapiruvchilar bilan suhbat qurish ham insonning qo'rquvdan xalos qiladi ham erkin tutishni òrgatadi. Chet ellik dòstlarni esa sayt va ilovalardan topish mumkin. Masalan Ingliz tilida sözlashuvchilarni "Tandem" yoki "By talk" ilovasidan, "Soul machines" saytidan topish mumkin.

**METADALOGIYA:** Texnologiyalardan foydalanish; ko'pchilik tabiri bilan aytganda, texnika texnologiyalar davrida zamonaviy qurilmalardan yetarli darajada foydalana olmaydigan inson bòlmasa kerak. Zamonaviy texnika yordamida biron narsani òrganish eng qulay va samaralisdır, ayniqsa bu til borasida. Sababi til òrganish uchun keng hajmdagi vefsahifalar, ilovalar mavjud. Barchasining öz funktsiyasi, ma'lum bir yo'nalishga qaratilgan maqsadi bor. Faqatgina òrganuvchilardan internet talab qiladi, xolos. Hozir pastda ularning bir qanchasi berilgan va ular:

#### 1. English with Jennifer

Professional til kurslardan qolishmaydigan sifatli darslar. 2007-yildan buyon turli mavzularda keng qamrovli òquv video kutubxonasini yaratib kelmoqda.

#### 2. Learning English with TV series

Ingliz tilini telekòrsatuvalar bilan òrganish uchun juda mos. Boshlovchilar mashhur seriallar, filmlar va qo'shiqlardagi ifodalar, jargon va texnik leksikani tahlil qilishadi. Kanal videolari yigirma daqiqadan bir yarim soatgacha davom etadi va bu orqali til va madaniy xususiyatlariga chuqur kirib borish mumkin.

#### 3. VOA learning English

Kanalda 52 haftalik tòliq kurs ishchi daftarlar va testlari bilan birga mavjud. Shuningdek, qisqa òquv sessiyalar uchun "Bir daqiqada ingliz tili" va "Amerika hikoyalari" pleylistlari ham mavjud.

#### 4. By talk va Tandem

Ingliz tilini endi òrganayotganlar, òrta va yuqori saviyadagilar uchun mòljallangan. Ròyhingga òtishda òz darajasini, asosan qaysi mavzuda suhbat qurmoqchiliginini tanlaydi va bu ilovaning òzi suhbat uchun ulab beradi.

#### 5. Ibrat farzandlari

Özbekistondagi eng mashhur va bepul ilova hisoblanib, barcha darslar video shaklida olib boriladi. Darslarni ketma ket ko'rish orqali tilni yaxshigina o'rganib olish mumkin.

#### 6. English Coach Chad

Asosan Ingliz tilida (Amerika aksentida) talaffuzni va gapirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Turli mavzularda videolar mavjud, darslar energetik va taqlid qilish yordamida òrgatiladi.

Bu ilovalardan qaysi birlari bilan shuğullanish òrganuvchining òzidan kelib chiqib tanlanib, har kuni shug'ullansa ko'zlangan maqsadga erishadi albatta.

#### **Eng ko'p tavsiya berilgan, lekin samarali bo'limgan strategiyalar:**

Har bitta òquvchi til o'rganish jarayonining qiziqarli bòlishini, yangi narsalarni qiyalmasdan òrganishni xohlaydi. Bu uchun òqituvchilar bir qancha metodlarni berib tashlaydi garchand u samarasiz bo'lsada. Ulardan:

- alifbo tartibidagi mingdan ziyod lug'at yod olish
- yurgan yo'lida kòrgan narsalarni òrganayotgan tilida nomlab ketish
- hamma narsani faqat òrganayotgan tilida òylash
- sakkiz soat davomida töxtamasdan dars qilish
- do'stlariga ham òsha òrganayotgan tilida gapirishga yoki yozishga harakat qilish

Tabiiyki bu yòllardan foydalanish deyarli barcha til òrganuvchilariga berilgan topshiriqlar va ular ham bu yòllardan foydalanishga harakat qilib ko'rishgan, afsuski ko'pchiligining til òrganishga bòlgan qiziqishi ortishi òrniga sòngan. Sababi esa bitta bu- ðta zerikarli va charchatadigan yòl bo'lganligida.

Sòz yod olishni oladigan bo'lsak, alifbo tartibida yod olish òrganuvchiga tushunarsiz, noaniq bòlib, uni nima uchun yod olayotgani va uni qayerda, qanday ishlatishni bilmaydi. Uning òrniga gazeta, jurnal yoki kitobdan bir kunda 1, 2 sahifa ðqib, tushunmagan sözlarining tarjimasini ko'rib, qayta va qayta o'qish orqali ham o'qib tushunish ham yangi sözlarni tez òrgana oladi.

Bundan tashqari, til òrganuvchilar òz atrofida, uyida yoki do'stlari bilan o'sha organyotgan tilining muhitini yarata olishi eng qiyini. Qanday qilib inson Özbekistonda yashasa, italyan tilini òrganayotgan bolsa, yaqinlariga, do'stlariga italyanchada qanday yoza oladi yoki yod olgan sözlarini ishlata oladi. Bu mantiqqa umuman tògri kelmaydigan holat. To'g'ri yurgan joyida ko'rgan narsalarni nomlab ketishi mumkin, lekin uzog'i 2-3kungacha, undan so'ng miya charchoq va qiyinchiliklarni his qilishni boshlaydi. Bu metod faqatgina til òrganishda demotivatsiya

qila oladi. Italyancha muhit yaratish uchun, Italiyaga borib yashash kerak. Inson robot emaski, 8 soat tinmasdan dars qilsa. Bu meditsina jihatidan han sog'lik uchun anchagina zararlidir hamda ruhiy va jismoniy ancha toliqtirib qoyadi. Tog'ri til bilan shug'ullanish kerak, ammo toxtovsiz, samarasiz yollardan emas, shunchaki 8 soat emas, 4-5 soat ajratib faqatgina manshu odatlar doirasida til muhitini his qilib dars qilsa kifoya.

### **Samarali sòz yod olish texnikasi.**

Til òrganuvchilarning orasida eng katta muammo - yangi sözlarni qanday yod olish va esda saqlab qolish hisoblanadi. Ularning eng katta qorquvi ham sòz yod olish va bu jarayonga juda qiyin deb qaraydi va bu ham til o'rganishga bølgan ishtyoqni sezilarli darajada tushurib yuboradi. Aslini olganda, bu jarayon unchalik qiyin bølmagan jarayon bølib, tik o'rganishda eng muhim va asosiy rolni bajaradi. Sòz yod olishning ikki xil usuli bor va ular: aktiv sözlar va passiv sözlar. Aktiv so'z yod olgan til òrganuvchisi bemalol bu sözlarni oğzaki nutqda ham yozma nutqda ham qo'llay oladi, ya'ni òrganuvchi uchun haqiqiy va asl ma'nosini farq qilish muammo bølmaydi. Ikkinchisi esa passiv yod olish turi. Passiv yod olgan til o'rganuvchisi uni amaliyotda ishlata olmaydi, ya'ni sözlashuvda, insho yozishda. Lekin passiv yodlagan sözlarni matn ichida yoki tinglash davomida korsa, eshitsa, uni tushunadi. Bundan kelib chiqadiki, ikkala turdag'i sòz yod olish ham foydali ekan.

Shunday bo'lishiga qaramasdan ko'pchilik til o'rganuvchilari aktiv yod olish tarafdori va bu jarayon qiziqarli bølishini xohlashadi. Albatta bu texnikani qo'llash til organuvchining darajasiga kora farq qiladi. Agar endigina boshlayotgan, hali boshlang'ich darajada bølsa, sözlarni guruhlab òrganish tavsiya etiladi. Agar ingliz tili misolida ko'rib chiqadigan bølsak, avvaliga oila a'zolari, sabzavotlar, mevalar, qarindosh-uruğlarga oid sözlarni jamlab, guruhlashtirib o'rganish, so'ngra, ya'ni darajasi biroz yuqorilagandan so'ng, òrganayptgan sözlariga fe'llarni qo'shib o'rganish lozim. Misol uchun: Apple - olma

Eat apple - olma ye

I eat apple now - men hozir olma yeyman

kabi òrganish anchagina samarali uslub hisoblanadi va bu usul asosan B1 darajaga chiqquncha qo'llash tavsiya etiladi.

Undan yuqori darajadagilar uchun qisqa-qisqa matn, hikoyalar òqib, bilmagan so'zlarni yod olib òrgansa, òrganishi ancha tezlashadi. Sababi matn ichida o'rganilgan sözlar boshqa sözlar bilan bog'lanib, qachon, qayerda, qanday holatda ishlatilayotgani ma'lum va bu o'quvchiga anchagina oson bøladi. Faraz qiladigan bølsa, agar so'zlar ustun shaklida yoki alifbo tartibida yod olinsa, til o'rganuvchi faqatgina uning ma'nosini bilib ketadi, lekin qanday ishlatiladi, gapning qayerida, qay holatda keladi-bularning birontasini tushunmaydi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR:**

Xulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy tilni òrganish kòproq madaniyatli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u o'zini o'zi tahlil qilish va yangi bilimlarni tizimlashtirish kònigmalariga ega ekan. Innovatsion usullar butun tizimni modernizatsiya qilishning ajralmas qismi. Shunga amin holda òrganuvchilar eng ilg'or yondashuvlar bilan tanishishlari va keyinchalik ularni birlashtirishi va o'z ishlarida foydalangan holda tilni tez o'rganishi mumkin. Kompyuterlar v boshqa qurilmalardan foydalanish butun ta'lif jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Òrganish jarayonida trening davomida nutq ko'nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli e'tibor berish kerak. Eng muhimi sinalgan, mazza qilib òrganadigan, qiynamaydigan va samarali uslublardna foydalanish òrganishning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYHATI:**

1. Johnson, K. E, The sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education, // TESOL Quarterly, - London .., 2006
2. Harmer J, The practice of English Language Teaching. - London, 2001.
3. Xaydarova. Z. S, Ingliz tilini òrgatishning zamonaviy uslublari. ISSN 2181- 1784
4. Jurakulova. M. S, Analysis of modern language methodologies for targeted language learning in various fields and specializations
5. Tòraqulova. D. M, Chet tilini oson va samarali o'rganish usullari